

**BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH YO‘LLARI**

Mustafayeva Gulorom Abdujalil Qizi

Jizzax politexnika instituti “Umumtexnika fanlari”, kafedrasi assestanti

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasining pedagogika yo‘nalishidagi professional ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos tajribalar to‘plangan, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yangicha talablar qo‘ymoqda, Davlat ta’lim standartining vazifalari.

Kalit so‘zlar. Kasb-hunar kollejlari, kichik mutaxassislar, fan-texnika, transport, morfologik faoliyat, bilish faoliyati.

**WAYS OF PREPARING FUTURE SPECIALISTS FOR PROFESSIONAL
ACTIVITY BASED ON NATIONAL VALUES**

Mustafayeva Gulorom Abdujalil Qizi

**Assistant of the Department of General Technical Sciences, Jizzakh
Polytechnic Institute**

Annotation: The professional educational institutions of the Republic of Uzbekistan in the field of pedagogy have accumulated unique experiences in training future specialists, the rapid development of science and technology sets new requirements for the training of highly educated specialists, the tasks of the State Education Standard.

Key words. Vocational colleges, junior specialists, science and technology, transport, morphological activity, cognitive activity.

O‘zbekiston Respublikasining pedagogika yo‘nalishidagi professional ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos tajribalar to‘plangan bo‘lib, hozirgi davrda 3,2,1 yillik kasbiy ta’limdagi deyarli barcha o‘quv fanlarining mazkur bo‘g‘inida o‘rgatilishi uchun lozim bo‘lgan zaruriy

(maksimal va minimal miqdorning o'rtachasi) miqdorini ifodalaydigan davlat ta'lim standartlari (kelgusida DTS) va kasbiy ta'lim tarmoq standarti – TTSLar ishlab chiqildi va tajriba sinovlardan o'tkazildi hamda amaliyotga joriy qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarorida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartining maqsadi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, kasb mahoratiga ega bo'lgan, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassa-salarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash; ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga hamda ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga va uning pirovard natijalariga, o'quvchilarning bilimi va kasbiy malaka darajasini baholash tartibiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash deb ko'rsatilgan. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, professional ta'lim muassasalariga qabul davrida o'quvchilarning nomutanosib taqsimlangan holda hujjat topshirishlari sabablaridan biri kasb-hunar ta'lim muassasasi bilan ota-onalar, hududdagi umumta'lim maktablari, mahalla-

jamoatchilik va ishlab chiqarish (davlat va xususiy) korxonalari jamoalari o'rtasida mustahkam, tizimli doimiy ravishdagi aloqalarning rejali ravishda muntazam o'rnatilmaganligidadir. Tadqiqotchi Ro'ziev I.E. "Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar tayyorlash muammolari ustida to'xtalib, o'qitishda ichki me'yorlashtirilgan tizimni emas, jahonning standartlariga mosligining muhimligini ta'kidlaydi. "Fanlarni o'qitishni takomillashtirish uchun innovatsion uslublarni yaratish va joriy etishning metodologik asoslari" bloklar faoliyatidan samarali foydalanish e'tiborga olinadi.

Pedagogik amaliyotlari blokiga (turli amaliyotlarda, masalan, uzluksiz, o'quv, diplom oldi va b.) o'quvchilarning nazariy olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash vositalari, omillari, shakllari va uslublarining hayotiylikni asoslash vazifasi qo'yiladi. Bu vazifani hal etishda ta'limiy milliy-moddiy qadriyatlardan va ularning integratsiyalashgan turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ko'proq bo'lajak mutaxassisda shakllanadigan shaxsiy-ma'naviy va kasbiy-ma'naviy sifatlarni tarkib topishiga e'tibor qaratiladi.

Pedagogika yo'nalishidagi texnikumlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarining samarali namunalari qo'llash ham muhim muammolardan hisoblanadi. Professional ta'lim muassasalarida o'rganiladigan barcha fanlarni, jumladan, umumkasbiy va maxsus fanlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda o'qitishda ilg'or texnologiyalarga, xususan, kompyuter dasturlaridan foydalanishga to'liq o'tilgan emas. Ma'lumki, ishlab chiqarishning barcha sohalariga yangi texnikalar va ilg'or texnologiyalar kirib keldi. Masalan, gazlamalarga ishlov berish, tikuvchilik, to'quvchilikda Rossiya bilan bir qatorda Kanada, Yaponiya, Koreya, Germaniyadan keltirilgan turli jihozlar, qurilmalar va texnologiyalar amalda qo'llanilmoqda. Ammo, ko'pgina texnikumlarga berilgan bunday jihozlar ba'zi xollarda mutaxassislar yetishmasligi sababli yetarlicha samara beradigan darajada ishlatilmasdan, ko'proq ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilmoqda.

“Tarbiyaviy tadbirlar turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir”. Shu sababli ta’lim muassasalari tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ishlar uslublari, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni tarbiyaviy ishlar amaliyotida qo‘llash masalalari pedagogik jamoalariing eng muhim muammosi bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilish va qo‘llashga bog‘liq.

Yakuniy davlat attestatsiyasi blokiga bo‘lajak mutaxassislarning o‘z kasbiga oid fanlarni (o‘z kasbiga oid muayyan muammoni) nechog‘lik puxta o‘zlashtirganini va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini baholash vazifasi qo‘yiladi. Bu vazifani bajarish barobarida bo‘lajak mutaxassis- ning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi haqida ham xulosa shakllantiriladi. Bunda bitiruvchining oliy o‘quv yurtiga yoki kasbiy faoliyatlarga tavsiya berishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga bo‘lgan bunday integrativ yondashuv bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy ma’naviy yetuk, raqobatbardosh zamonaviy mutaxassis bo‘lib shakllanishida mustahkam metodologik asos bo‘la oladi. Pedagog olim Sh.Mardonov ta’lim-tarbiyaning oliy qadriyat ekanligini ta’kidlab, ”Pedagogik ta’lim tizimida ta’limiy qadriyatlardan foydalanish” nomli maqolasida bu haqda shunday yozadi: ”Ta’limiy qadriyatlar-shaxs tomonidan individual qimmatining to‘g‘ri baholanishi, tan olinishi, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi, shuningdek, o‘ziga xoslikning saqlanib qolishini ta’minlovchi sharoitni yaratishni nazarda tutadi”.

Pedagog olim ta’limiy qadriyatlardan uzluksiz ta’lim tizimida, shuningdek, o‘qituvchi-kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bosqichida amalda foydalanish texnologiyasini ishlab chiqadi va mazkur qadriyatlarning asosini quyidagilar tashkil etishini ko‘rsatib o‘tadi: “ta’limning zamonaviy

metodologiyasi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy va umumbashariy madaniyat; xalq an'analari, urf-odatlar; xalq pedagogikasi g'oyalari; pedagogik gumanizm; shaxsga yo'naltirilgan pedagogika; pedagogik madaniyat; talabalarning individual qiziqishlari asosida shakllantirilgan hamkorlik, o'zaro aloqalar va bir-birini tushunish, ishonch, o'zaro yordam, munosabatlarni uyg'unlashtirish pedagogikasi; innovatsion pedagogik texnologiyalar - ta'limiy qadriyatlar sifatida; innovatsion ta'lim, ijodiy fikrlash, analitik qobiliyatlar. Sh. Mardonov xalq pedagogikasiga, xalqning urf-odatlariga asoslangan ta'limiy qadriyatlarni qo'llashni zamonaviy ta'lim texnologiyalari, innovatsion va axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib olib borishni ko'rsatib beradi.

Qachonki o'zi biror kasb-hunarni egallasa, shu orqali faoliyat olib borsa, kishilar mehnatini his qiladi. Shu sabab yoshlarni kasb bilan birga hunar o'rganishiga ham imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish lozimdir. Ushbu fikrlardan faqat milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashgina emas, balki ularni tiklash, yangilarini yaratish, takomillash-tirish va kelgusi avlodlarga yetkazish choralari ko'rish, avvalo ziyolilarni, qolaversa, jamiyatdagi barcha kishilarning muqaddas burchi ekanligi kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov Sh.N., Lutfullayeva Ch.S. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONIDA KOMPETENTLIK // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-o-qituvchilarni-kasbiy-faoliyatga-tayyorlash-jarayonida-kompetentlik> (дата обращения: 11.11.2025).

2. Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// MU Boliqul o'g'li //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7, // 157-164

3. Jiyanqulova R. Pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.// Ta'lim tizimida ijtimoiygumanitar fanlar. №2. -T., 2014. - B-59.

3. Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., Ziyayev Sh, V., Хамидов, Х., & Юсупов, А. (2023). Значения андрогенных рецепторов для прогнозирования выживаемости больных трижды негативным раком молочной железы. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(6), 5-8.

4. Almuradova, D. M., Mukumova, D. I., & Turaeva, X. K. (2022). Karlibaev AO Modern endocrine therapy in locally advanced estrogen or progesterone receptor-positive breast cancer. *Образования и наука в XXI веке*, 24(2), 773-780.